

PENSIYA TAYINLASHDA ISH ATAJINING AHAMIYATI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Shoxruh Xushboqov

shoxruhxushboqov12@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629049>

Annotatsiya. Ushbu maqolada pensiya tayinlashda ish stajining ahamiyati va uning huquqiy asoslari batafsil tahlil qilinadi. Maqola O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, xususan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun va mehnat kodeksi asosida ish stajining tushunchasi, turlari va pensiya huquqidagi o'rnini ochib berilgan. Shuningdek, ish stajini tasdiqlovchi hujjatlar, ish stajiga tenglashtirilgan davrlar hamda ish staji bilan bog'liq nizolarni hal qilish tartibi tahlil qilingan. Maqolada pensiya tizimining muhim elementi hisoblangan ish stajining huquqiy kafolatlari va uning pensiya ta'minotidagi o'rnini ilmiy asosda tahlil qilingan holda, amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ish staji, pensiya tizimi, huquqiy asoslar, davlat pensiya ta'minoti, mehnat qonunchiligi, ijtimoiy himoya, mehnat daftarchasi, imtiyozli ish staji.

THE IMPORTANCE OF SENIORITY IN PENSION ASSIGNMENT AND ITS LEGAL BASIS

Abstract. This article analyzes in detail the importance of seniority in pension assignment and its legal basis. The article reveals the concept, types and place of seniority in pension law based on the current laws of the Republic of Uzbekistan, in particular, the Law "On State Pension Provision of Citizens" and the Labor Code. Also, documents confirming seniority, periods equated to seniority, and the procedure for resolving disputes related to seniority are analyzed. The article analyzes the legal guarantees of seniority, which is an important element of the pension system, and its place in pension provision on a scientific basis, and gives practical suggestions.

Keywords: seniority, pension system, legal basis, state pension provision, labor legislation, social protection, work book, preferential seniority.

Maqolada foydalanilgan metodologik yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Normativ tahlil: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida ish stajining huquqiy asoslari tahlil qilinadi.

Doktrinal tahlil: Mehnat huquqi va ijtimoiy ta'minot huquqi sohasidagi ilmiy adabiyotlar va ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

Qiyosiy tahlil: Ish stajining turlari, hisoblash tartiblari va ularning pensiya ta'minotidagi o'rnini solishtirilib tahlil qilinadi.

Empirik: Ish staji tahlilni tasdiqlovchi hujjatlar, ularning yo'qolishi holatlarida nizolarni hal qilish mexanizmlari va Pensiya jamg'armasi faoliyati, ish stajining ijtimoiy himoya tizimidagi roli, fuqarolarning pensiya huquqini himoya qilishdagi huquqiy kafolatlari tahlil qilingan.

Xalqaro huquqiy normalar bilan taqqoslash: O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida ish stajini hisobga olish va pensiya ta'minotidagi o'zaro aloqalarni ko'rib chiqish orqali tahlil qilinadi.

Raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish: Ish stajini hisoblash va

saqlashda elektron tizimlarning roli va istiqbollari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning ijtimoiy himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi asosi esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi 1-bandida "Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega" deb ta'rif berilgan. Ijtimoiy ta'minot tizimining asosini pensiya va nafaqa tashkil etadi. Bu ikkala tushunchaning bir-biridan farqi esa ish stajidir, pensiya tayinlash uchun ish staji talab etilsa, nafaqa uchun ish staji ahamiyat kasb etmaydi. Pensiya ta'minoti tizimida ish staji pensiya olish huquqini belgilovchi asosiy omil bo'lib, fuqarolarning keksalik davrida farovon yashashini ta'minlashda fuqaroning pensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida pensiya tayinlash, hisoblash va to'lash tartibi 1993-yil 3-sentabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni, 2022-yil 13-oktabrdagi Vazirlar mahkamasining 592-sonli va boshqa qarorlari, Prezidentimizning farmon va qarorlari orqali tartibga solinadi. Ushbu ilmiy maqolada fuqarolarga pensiya tayinlashda ish stajining ahamiyati, uning huquqiy asoslari, tarkibiy qismlari va zamonaviy pensiya tizimidagi o'rni chuqur tahlil qilinadi.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Pensiya ta'minoti huquqi qayta ishlangan va yangilangan qonunchilik asosida muntazam ravishda takomillashib bormoqda. 2001-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda qonunga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan, jumladan xalqaro shartnomalar bilan bog'liq qoidalar, fermer xo'jaligi hodimlari (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.08.2004 yildagi 662-II-son), harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya xodimlari, sudyalari va prokuratura xodimlarining pensiya ta'minoti masalalari aniqlashtirilib, mukammallashtirilgan.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti" to'g'risidagi qonunning 2-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarining uchta asosiy turi belgilangan:

1. Yoshga doir pensiya
2. Nogironlik pensiyasi
3. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi

Yuqorida keltirilgan pensiya turlarining har biri uchun ish stajiga bo'lgan talablar bir-biridan farq qiladi, ammo ish staji barcha turdagi pensiyalar uchun asosiy talablardan biri hisoblanadi. Ushbu qonunning 1-moddasidan ko'rinib turibdiki, "ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oila a'zolari ushbu Qonun normalariga asosan davlat pensiyalarini olish huquqiga ega emaslar". Bu esa ish stajining pensiya huquqini belgilashdagi muhim ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Ish staji deganda, shaxsning mehnat faoliyati davomida ishlagan va sug'urta badallari to'langan davr tushuniladi. Ish staji pensiya huquqini belgilashda asosiy ko'rsatkich bo'lib, uning yetarliligi pensiya ta'minotidan foydalanish huquqini ta'minlab beradi.

Ish staji bir necha turga bo'linadi:

1. Umumiy ish staji – shaxsning butun mehnat faoliyati davomida to'plagan staji.
2. Maxsus ish staji – alohida mehnat sharoitlarida yoki maxsus kasbiy faoliyat bilan bog'liq staj.

Yuqorida keltirilgan ish stajining har bir turi pensiya ta'minoti tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, pensiya miqdorini aniqlashda turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Pensiya ta'minoti huquqi quyidagi ikki asosiy talabning bajarilishi bilan yuzaga keladi:

1. Belgilangan yoshga etish (Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonuni 7-moddaga asosan ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh).

2. Yetarlicha ish stajiga ega bo'lish (Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonuni 7-moddaga asosan ayollar uchun 20 yil, erkaklar uchun 25 yil).

Ish staji nafaqat pensiya huquqini belgilaydi, balki pensiya miqdorini hisoblashda ham muhim ahamiyatga ega. Ish staji qanchalik uzoq bo'lsa, pensiya miqdori shunchalik yuqori bo'ladi, chunki pensiya miqdori ish staji davomidagi o'rtacha oylik ish haqi asosida hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya olish uchun qonun belgilagan minimal ish staji mavjud bo'lib, bu muddatdan kam bo'lgan ish staji pensiya huquqini bermaydi. Bu muddat Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunning 8- moddasiga asosan 7 yil etib belgilangan. Nogironlik pensiyasi va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun ham alohida ish staji talablari belgilangan va ushbu qonunda belgilab o'tilgan.

Ish stajini hisoblash tartibi va uning tarkibiy qismlari qonunchilik bilan belgilanadi. Ish stajiga quyidagi davrlar kiritiladi:

1. Mehnat shartnomalari asosida ishlangan davrlar.
2. Davlat xizmatida bo'lgan davrlar.
3. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan davrlar (agar tegishli sug'urta badallari to'langan bo'lsa).
4. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish davri (agar bu davr qonunchilik bilan ish stajiga kiritilishi belgilangan bo'lsa).
5. Harbiy xizmat davri.
6. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa davrlar.

Ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat, bu mehnat daftarchasi yoki elektron mehnat daftarchasi hisoblanadi. Bundan tashqari, arxiv ma'lumotlari, pensiya jamg'armasiga to'langan badallari to'g'risidagi ma'lumotnomalar, sudning hal qiluv qarorlari va boshqa hujjatlar ish stajini tasdiqlovchi hujjatlar sifatida qabul qilinishi mumkin.

O'zbekistonda qonunchilik ba'zi davrlari bevosita mehnat bilan bog'liq bo'lmasa ham, ish stajiga tenglashtirilishini belgilaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Bolani parvarish qilish uchun berilgan ta'til davri (belgilangan muddatgacha)
2. Ishsizlik nafaqasi olish davri
3. Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish davri

Ushbu davrlar ish stajini hisoblashda inobatga olinishi, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ba'zi toifadagi fuqarolar uchun erta pensiya tayinlash imkoniyati ko'zda tutilgan. Erta pensiya - umumiy belgilangan pensiya yoshiga etgunga qadar tayinlangan pensiyalar (ya'ni ayollar uchun 60 yoshdan oldin va erkaklar uchun 65 yoshdan oldin tayinlanadigan pensiyalar) hisoblanadi.

Erta pensiya tayinlash uchun, odatda, imtiyozli ish staji talab qilinadi. Imtiyozli ish staji – og'ir va zararli mehnat sharoitlarida ishlash, alohida iqlim sharoitlarida ishlash yoki boshqa maxsus holatlar bilan bog'liq ish staji hisoblanadi. Imtiyozli ish staji nafaqat erta pensiya tayinlashda, balki pensiya miqdorini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. Imtiyozli ish staji pensiya miqdorini hisoblashda ko'pincha yuqori koeffitsientlar bilan hisobga olinadi, bu esa

pensiya miqdorining oshishiga olib keladi.

Ish staji bilan bog'liq nizolar amaliyotda tez-tez uchraydi. Bunday nizolar asosan ish stajini hisoblash, uning davomiyligini belgilash yoki ma'lum bir davrni ish stajiga kiritish masalalarida yuzaga keladi.

Amaliyotda ko'pincha ish stajini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq muammolar uchraydi. Bu muammolar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Mehnat daftarchasidagi yozuvlarning to'liq emasligi
2. Korxona, tashkilot yoki muassasaning tugatilishi natijasida hujjatlarning yo'qolishi
3. Arxiv hujjatlarining saqlanmasligi

Bunday holatlarda, ish stajini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlar, guvohlar ko'rsatmalari yoki boshqa dalillar taqdim etilishi mumkin. Agar ish stajini tasdiqlovchi hujjatlarni tiklash imkoniyati bo'lmasa, nizoni hal qilish uchun sud tartibida ish ko'rilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar bilan ijtimoiy ta'minot sohasida xalqaro shartnomalar tuzgan. Bu shartnomalar MDH davlatlari bilan tuzilgan hisoblanib, fuqarolarning boshqa davlatlarda to'plagan ish stajini hisobga olish imkoniyatini yaratadi.

2023-yilgi qonun tahrirlariga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar". Bu esa O'zbekistonda yashayotgan chet el fuqarolari ham mahalliy fuqarolar bilan teng darajada pensiya ta'minoti huquqidan foydalanishlari uchun imkoniyatlarni ko'rsatadi. Xalqaro shartnomalar asosida, bir davlatda to'plangan ish staji boshqa davlatda ham e'tirof etilishi va hisobga olinishi mumkin. Bu esa fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda pensiya tizimi doimo rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu rivojlanish jarayonida ish stajining ahamiyati va roli ham o'zgarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimidagi islohotlar davom etmoqda. Bu islohotlar natijasida ish stajini hisoblash tartibi, pensiya miqdorini aniqlashda ish stajining roli o'zgarishi mumkin. Masalan, xususiy pensiya jamg'armalarga ruhsat berilsa, sug'urta badallari to'langan davrlar va to'lov miqdori ish stajidan ham muhimroq ahamiyat kasb etishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda xorijiy rivojlangan davrlarda nodavlat pensiya ta'minoti tizimlari ham rivojlanmoqda. Bu tizimlarning rivojlanishi bilan davlat pensiya ta'minoti tizimida ish stajining ahamiyati o'zgarishi mumkin.

Raqamlashtirish jarayonlari ish stajini hisoblash tartibiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy axborot tizimlari ish staji to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa ish stajini hisoblash jarayonini soddalashtiradi va aniqligini oshiradi.

Yuqorilarni umumlashtiradigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasida pensiya huquqini belgilashda ish staji hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi, ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar davlat pensiyalari olish huquqiga ega emasligi aniqlandi. Ish staji tushunchasi, uning turlari va huquqiy asoslari o'rganildi.

Zamonaviy sharoitda pensiya tizimidagi islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va nodavlat pensiya ta'minoti tizimlarining rivojlanishi natijasida ish stajining ahamiyati va roli o'zgarishi mumkin. Biroq, ish staji pensiya huquqini belgilashda asosiy mezon bo'lib qolaveradi.

Pensiya tizimini yanada takomillashtirish, ish stajini hisoblash tartibini soddalashtirish va aniqlashtirish, shuningdek, ish staji bilan bog'liq nizolarni hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud. Bu esa fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish

va pensiya ta'minoti tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni, 01.05.2023 yildagi O'RQ-837-son.
 2. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi – LEX.UZ
 3. 28.10.2022. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi – LEX.UZ
 4. Yu..Tursunov. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi: Toshkent-2012.
 5. Yoshga doir pensiya tayinlash <https://advice.uz/oz/documents/205>.
 6. Pensiyaga chiqish shartlari <https://gov.uz/oz/pj/sections/view/2062>.
 7. Yoshga doir pensiya – pf.ru.uz <https://pf.ru.uz/uz/pages/pensiya-po-vozhastu>.
 8. Ish stajini aniqlash tartibi <https://pf.ru.uz/uz/pages/opredelenie-stazha-raboty>.
 9. Yu..Tursunov. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi: Toshkent-VMQ 592-son 13.10.2022. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi. <https://lex.uz/docs/-6236060?ONDATE=30.10.2024>.
1. [Lex.uz](https://lex.uz)
 2. [Advice.uz](https://advice.uz)
 3. [Pfru.uz](https://pf.ru.uz)
 4. [Gov.uz](https://gov.uz)